



UDK:091

Orzigul NE'MATOVA,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nematova_orzigul18@bk.ru

Falsafa fanlari doktori, professor M.Qaxxorova taqrizi asosida

“HUSNI-XULQ” TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA UNING MOTRUDIYA TA'LIMOTIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “husni-xulq” tushunchasining shakllanishi va uning Abu Mansur Motrudiy ta'limotidagi o'rni tahlil qilinadi. Husni-xulq – insonning iymoni, aql-zakovati va odob-axloqi bilan chambarchas bog'liq sifat sifatida ko'rsatiladi. Motrudiy nazarida, yaxshi xulq Alloh tomonidan inson fitratiga ato etilgan bo'lib, uni aql orqali to'g'ri rivojlantirishi asoslanganligi ochib beriladi. Maqolada Motrudiy axloqiy qadriyatlarni shariat va aql uyg'unligida baholab, husni-xulqni faqat tashqi muomala emas, balki ichki e'tiqod va ma'naviy kamolot ifodasi sifatida taqdim etgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: Motrudiy, husni-xulq, axloq, aql, iymon, shariat, fazilatlar, ma'naviy kamolot, odob, fitrat.

ФОРМИРОВАНИЕ ПОНЯТИЯ “ХУСНИ-ХУЛҚ” И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УЧЕНИИ МОТРУДИИ

Аннотация

В данной статье анализируется формирование понятия “хусни-хулқ” и его место в учении Абу Мансура Мотруди. Хороший характер показан как качество, тесно связанное с верой, интеллектом и нравственностью человека. По мнению Мотруди, хороший характер дарован Аллахом человеческой природе, и его правильное развитие через разум основано на этом. В статье отмечается, что Мотруди оценивал нравственные ценности в гармонии шариата и разума, представляя красоту не только как внешнее общение, но и как выражение внутренней веры и духовного совершенства.

Ключевые слова: Мотруди, хорошее поведение, мораль, разум, вера, шариат, добродетели, духовное совершенство, манеры, природа.

THE FORMATION OF THE CONCEPT OF “GOOD CHARACTER” AND ITS SIGNIFICANCE IN THE TEACHINGS OF MATURIDI

Annotation

This article analyzes the formation of the concept of “good character” and its role in the teachings of Abu Mansur Motrudiy. Good character is shown as a quality closely related to a person's faith, intelligence, and manners. In Motrudiy's view, good character is given to human nature by Allah, and it is revealed that it is based on the correct development of it through reason. The article highlights that Motrudiy evaluated moral values in harmony with Sharia and reason, presenting good character not only as external interaction but also as an expression of inner faith and spiritual perfection.

Key words: Maturidi, good character, morality, intellect, faith, Sharia, virtues, spiritual perfection, manners, nature.

Kirish. Hozirgi kunda “Husni-xulq” masalasi dolzarb bo'lib, bu masala nafaqat bugungi kunda, balki hamma davrlarda zarur hodisa hisoblanadi va doim shunday bo'lib qoladi. “Alloh taolo har bir insonni o'ziga xos xususiyatlar, xulq-atvorlar bilan yaratgan. Bu xususiyatlar ichida o'zgalardan o'rnak olish, kimgadir o'xshashga intilish, ibratlanish kabilar ham bor. Buning hikmati esa insonning yaxshilik, go'zallik va kamolot sari intilishiga layoqatli bo'lishi hamda bundan manfaat olib, ikki dunyo saodatiga erishishdir”. Bu jarayon insoniyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatning yuksalishida muhim o'rin tutadi. Shuningdek, o'rnak olish va ibrat olish insonning komillikka intilishida muhim vosita hisoblanadi. Agar inson yaxshilik, go'zallik va kamolot sari intilayotgan kishilarga ergashsa, u shaxsiy hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi. Biroq bunda inson mustaqil tafakkur qilish qobiliyatini yo'qotmasligi, shunchaki ko'r-ko'rona taqlid qilmasligi lozim. Faqat yaxshi fazilatlarini o'zlashtirish, ma'rifat va axloqiy yuksalishga intilish insonni ikki dunyo saodatiga yetaklaydi. Demak, boshqalardan o'rnak va ibrat olishi inson uchun tabiiy hol bo'lib, agar u ongli ravishda amalga oshirilsa, bu inson kamolotiga, hayotining ma'no-mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. “Husni-xulq” tushunchasining shakllanishi va uning Motrudiy ta'limotidagi ahamiyatini yoritishda tarixiy-falsafiy tahlil, taqqoslama yondashuv, manbashunoslik va axloqiy-estetik tahlil metodlari qo'llaniladi. Bu yondashuvlar orqali tushuncha ildizi, shakllanish bosqichlari va doktrinal asoslari ochib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har bir jamiyat va har bir shaxs – xoh erkak bo'lsin, xoh ayol bo'lsin, go'zal xulqqa ehtiyoji bor. Buyuk va komil shaxsiyatdan o'rnak oluvchi jamiyat a'zosi turli fazilatlariga, yaxshi xislatlarga ega bo'ladi, yurti, oilasi obod bo'ladi.

“Husni-xulq” insonning shaxsiyati va ijtimoiy hayotidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson xulq-atvori nafaqat individual rivojlanishga, balki butun jamiyatning farovonligiga ham hissa qo'shadigan ijtimoiy voqeilikdir. Husni-xulq tushunchasining falsafiy asoslarini tadqiq etish, nazariy va metodologik jihatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega hodisa hisoblanadi. Ushbu tushuncha insonning axloqiy va estetik jihatdan ibrat va namunani, go'zallikni, xulq-atvor esa ijtimoiy munosabatlar muhim o'rnini belgilab beradi. “Husni-xulq”ni nazariy jihatdan tadqiq etishda, uning axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik jihatlarini qamrab olgan holda tadqiq etilsa ushbu voqeilikning haqiqiy mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Husni-xulq tushunchasi axloq falsafasining “yaxshilik va yomonlik, adolat va nohaqlik, haqiqiylik va soxtalik kabi me’yoriy kategoriyalari bilan tahliliy o’rganilgandagina uning mohiyatini to’liq anglash imkoniyatiga ega bo’linadi”. “Husni-xulq” shunday murakkab hodisaki, uni bir nechta fanlar nuqtai-nazaridan tahlil qilganda uning mazmuni ochib beriladi. “Husni-xulq”ni estetik jihatdan inson qarashlari go’zallikka bo’lgan munosabatini belgilab beradi. Go’zallik xulq-atvor va ijtimoiy munosabatlarga o’z ta’sirini ko’rsatadi. “Husni-xulq” tushunchasini ijtimoiy kontekstda o’rganilishi zarur holat hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy normalar, an’analar va madaniyat husni-xulqning shakllanishida muhim rol o’ynaydi.

Insonning ichki dunyosida uning motivlari, orzu-inlislari mujassamlashgan. Aynan “husni-hulq” va xulq-atvori o’rtasidagi bog’liqlik, psixologik holat bilan belgilanadi. “Husni-xulq”ni metodologik jihatdan o’rganishda tahlil qilish va analiz muhim ahamiyatga ega. “Husni-xulq” tushunchasining tarixiy rivojlanishini o’rganish orqali uning retrospektiv rivojlanishi, zamonaviy talqin va tendensiyalari tarixiylik metodi orqali yondoshilganda mohiyatini to’liq anglash mumkin.

Husni xulq – bu inson ichki dunyosini va ruhiy olamini go’zallashtiribgina qolmay, uning fe’l atvorida ham namoyon bo’ladigan go’zal fazilatdir. Shu bilan birga husni xalq degan so’z ham borki, bu kishining tashqi go’zalligini ifoda etadi. Husni xulqsiz husni xalq nisbiy go’zallikdir. Inson tabiatidagi xulqlar ikki xil bo’lib - ular axloqi hamida va axloqi zamima deb nomlanadi. “Husni-xulq” atamasi o’zbek tilidagi ikki arabcha “husn” (go’zallik, chiroy) va “xulq” (axloq, fe’l-atvor) so’zlarining birikmasidan tashkil topgan. Bu atama insonning chiroyli axloqiy fazilatlarini, yaxshi xulqi va odob-axloqining go’zalligi ma’nosida ishlatiladi.

“Husni-xulq” (الْحُسْنُ) – arabcha ibora bo’lib, “odobli xulq” yoki “yaxshi xulq” degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha islom an’analari va falsafasida chuqur ildizlarga ega bo’lib, uning talqini qo’llanishiga ko’ra istilohlarda turlicha ma’nolarda ham qo’llaniladi. “Husni-xulq” ko’p qirrali tushuncha bo’lib, diniy hamda dunyoviy ma’nolarda ham ishlatiladigan universal atamadir. Ushbu atama asrlar davomida dolzarb bo’lib kelgan, jamiyat va madaniyatdagi o’zgarishlar bilan hamohang rivojlanishda davom etmoqda.

“Husni-xulq” atamasini tahlil qilar ekanmiz, arab tilida refleksli shaxs olmoshlarining mavjud emasligi, bu tushunchani mohiyatini to’liq qamrab oladigan, atamani yevropa falsafasida ham, yoki rus falsafiy tafakkurida va falsafaga oid lug’atlarda uchratmadik. Tadqiqot ishimizda va ilmiy maqolalarimizning rus va ingliz tilidagi izohlarida ham “Husni-xulq” atamasi tarzida ifodalangan.

Husni-xulq insonni komillikka olib boruvchi, uni Allohga yaqinlashtiruvchi, jamiyatda tinchlik va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim fazilatdir. U o’z mohiyatiga ko’ra, imonning ifodasi, ma’naviyatning negizi va axloqiy madaniyatning asosiy ko’rsatkichidir. Husni-xulqli jamiyat – bu ma’naviy barkamol, axloqan sog’lom va tinchlikka intiluvchi jamiyatdir. Shu sababli, har bir inson o’zida bu fazilatlarini tarbiyalashi, uni oilada, ta’limda, mehnat jamoasida va jamiyatda targ’ib etishi lozim. Husni-xulqning zamonaviy ma’nosi ham kengayib, bugungi globallashuv, raqamli jamiyat va axborot tezligining kuchaygani davrida ham insoniy munosabatlar, madaniyatlararo muloqot, bag’rikenglik va murosaga asoslangan xulq-atvor juda muhimdir. Shaxslararo kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlardagi xulq va til madaniyati ham husni-xulq mezonlariga mos bo’lishi lozim. Zero, axloq faqat ibodat bilan emas, balki ijtimoiy hayotdagi har bir qadamingizda namoyon bo’ladi.

Tahlil va natijalar. Islom tafakkuri tarixida alohida o’rin tutgan mutafakkir Abu Mansur Motrudiy (870–944)

asarlarida axloqiy qadriyatlar masalasiga katta e’tibor berilgan. Uning ta’limotida “husni-xulq” tushunchasi, ya’ni go’zal xulq va yaxshi axloq masalasi markaziy o’rin tutadi. Motrudiy fikricha, insonning husni-xulqi – nafaqat jamiyatdagi muomala me’yorlarini belgilovchi unsur, balki uning e’tiqodi va ilohiy irodaga munosabatining ko’zgusi hamdir.

Motrudiy ta’limotiga ko’ra, xulq va axloq inson fitratiga bog’liq holda yaratilgan. Unga ko’ra, inson o’z tabiatida yaxshilik va yomonlikni anglash qobiliyatiga ega. Husni-xulq esa ana shu tabiiy qobiliyatning ijobiy rivoji natijasidir. Insondagi yaxshi xulq – mehr-shafqat, adolat, saxiylik, halollik kabi sifatlarning namoyon bo’lishi orqali ko’rinadi. Motrudiy nazarida, husni-xulq Alloh tomonidan berilgan aql vositasida rivojlantiriladi. Inson o’z aqlidan to’g’ri foydalanish orqali to’g’ri axloqiy qarorlar qabul qiladi va husni-xulqni mustahkamlaydi.

Motrudiy axloqiy qadriyatlarni baholashda aqlning roliga alohida urg’u beradi. Uningcha, “yaxshilik va yomonlik o’z mohiyatiga ko’ra aql bilan idrok etiladi. Alloh odamlarga aql ato etgan va u orqali ular yaxshilikni yomonlikdan ajrata oladilar. Shu sababdan, husni-xulq insonning irodasi va aqlini to’g’ri ishlatish natijasida shakllanadi”. Motrudiy insonni faqat shariat hukmlariga amal qilgani uchun emas, balki aqliy va irodaviy ravishda yaxshilikka intilgani uchun ham maqtaydi.

Uning fikricha, Alloh tomonidan yuborilgan payg’ambarlar odamlarga husni-xulqni anglatish va uni hayotga tadbiiq etishni o’rgatish uchun kelganlar. Payg’ambar Muhammad (s.a.v) “Men husni-xulqni mukammal qilish uchun yuborildim” degan hadisida ham bu fikr ifodasini topadi. Motrudiy bu hadisni sharhlab, insoniy kamolotning asosi yaxshi xulq va fazilatlar ekanligini ta’kidlaydi. Husni-xulq shunchaki tashqi ko’rinishdagi odob-axloq qoidalariga amal qilish emas, balki qalbdagi iymon, ichki tozalik va Allohga sadoqat bilan uyg’unlashgan axloqiy fazilatdir.

Motrudiy ta’limotida husni-xulq faqat dunyoviy manfaat uchun emas, balki Alloh rizosi uchun amalga oshirilishi zarur ekani ta’kidlanadi. Uningcha, “insonlar faqat odamlarga yoqish yoki jamiyatda obro’ topish uchun emas, balki Allohning buyruqlariga itoat qilish va iymonini mukammallashtirish uchun yaxshi xulq bilan yashashlari kerak”. Shu bois, Motrudiy axloqiy amallarni iymon bilan chambarchas bog’laydi va husni-xulqni iymonning zaruriy natijasi sifatida ko’radi.

Husni-xulqning asosiy unsurlari sifatida Motrudiy mehribonlik, sabr-toqat, kechirimlilik, adolat, rostgo’ylik va saxiylikni ko’rsatadi. Unga ko’ra, bu fazilatlar insonni nafaqat jamiyatda obro’li qiladi, balki uning Alloh oldidagi maqomini ham yuksaltiradi. Motrudiy “inson tabiatida ba’zan nafsni istaklar va shaytoniy vasvasalar sababli yomon xulqlar paydo bo’lishi mumkinligini ham e’tirof etadi”. Shu sababli, husni-xulqni saqlash va rivojlantirish uchun o’z ustida doimiy ravishda ishlash, nafsga qarshi kurashish va aqlni doimiy ravishda haqqa yo’naltirish zarur.

Motrudiy ta’limotida axloqiy qadriyatlar shariat bilan ham uyg’un holda tasvirlanadi. Uning fikricha, shariat ko’rsatmalari husni-xulqni rivojlantirish va to’g’ri yo’naltirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shariat orqali yaxshilikka da’vat etish va yomonlikdan qaytarish amaliyotlari mustahkamlanadi. Biroq, Motrudiy husni-xulqni faqatgina shariat hukmlariga amal qilish bilan chegaralamaydi; u buni inson tabiatidan, aqliy anglash va qalb pokligi orqali orttirilishi kerak bo’lgan sifat sifatida tushuntiradi.

Motrudiy ta’limotida husni-xulq – insonning iymonining amaliy ko’rinishi, aql va nafs o’rtasidagi muvozanat natijasidir. Inson o’zining axloqiy fazilatlarini Allohga yaqinlashish vositasi sifatida ko’rib, husni-xulqni doimiy ravishda rivojlantirishga intilishi kerak. Motrudiy bizga shuni o’rgatadiki, haqiqiy husni-xulq – bu faqat tashqi

odob emas, balki ichki poklik, aql va iymon bilan uyg'unlashgan mukammal insoniy fazilatdir.

Xulosa va takliflar. "Husni-xulq" – bu insonning odob-axloqi, yaxshi fe'l-atvori va komil inson fazilatlarini ifodalovchi tushunchadir. Islom tafakkurida, xususan, Moturudiya ta'limotida "husni-xulq" inson kamolotining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu tushuncha tarixiy taraqqiyot davomida rivojlangan bo'lsa-da, Moturudiy uni chuqur falsafiy asosda mustahkamlab berdi. Quyida ushbu tushunchaning shakllanishi va Moturudiya ta'limotidagi ahamiyati asosida beshta xulosani ko'rib chiqamiz:

1. Islomda husni-xulq tushunchasi Qur'on oyatlari va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hadislariga tayangan holda shakllangan. Qur'onda "axloqning eng go'zaliga ergashish" chaqiruvi mavjud (Fussilat surasi, 41:34). Payg'ambar (s.a.v.) esa: "Men go'zal xulqni to'liq qilish uchun yuborildim", deb ta'kidlaganlar. Moturudiy esa bu asosiy diniy manbalarni aql bilan uyg'unlashtirib, husni-xulqni insonning tabiiy ehtiyoji va ma'naviy kamolotining zarur qismi sifatida asoslaydi. Uning ta'limotiga ko'ra, inson yaxshi xulqni aqliy idrok va o'z irodasi bilan tanlab olishi kerak.

2. Moturudiy nazarida, husni-xulq faqat diniy buyruqlarga amal qilish emas, balki aql va iymon bilan mustahkam bog'liqdir. Aql orqali inson yaxshi va yomonni farqlaydi, iymon esa bu farqlashni ma'naviy mas'uliyat bilan mustahkamlaydi. Demak, haqiqiy husni-xulq – iymon va aql birligidan kelib chiqadi. Moturudiy uchun yaxshi axloq insonning faqat tashqi ko'rinishdagi odobi emas, balki uning ichki e'tiqodi va tafakkurining amaliy ko'rinishidir.

3. Moturudiy ta'limotida husni-xulq nafaqat shaxsiy fazilat, balki ijtimoiy hayot uchun ham zarur omil sifatida ko'riladi. Jamiyatda adolat, mehr-oqibat, halollik va ishonch kabi qadriyatlar faqat husni-xulqli insonlar orqali qaror topadi. Agar insonlar orasida yaxshi xulq-odob bo'lmasa, jamiyatdagi tinchlik va barqarorlik buziladi. Shu bois Moturudiy axloqiy tarbiyani jamiyat rivojining tayanchlaridan biri deb biladi.

4. Moturudiy insonning erkin irodasiga katta e'tibor beradi. Unga ko'ra, husni-xulq majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda namoyon bo'lishi kerak. Inson o'z irodasi bilan yaxshi xulqni tanlab, uni ongli ravishda hayotga tatbiq etadi. Bu yondashuv inson shaxsiyatini hurmat qilish va uni axloqiy kamolot sari undash g'oyalari uchun keladi.

5. Moturudiy ta'limotida husni-xulq vaqtinchalik yoki faqat dunyoviy manfaatlarga bog'liq emas, balki abadiy qadriyat sifatida baholanadi. Yaxshi axloq insonni nafaqat dunyoda, balki oxiratda ham saodatga yetkazadi. Shu bois Moturudiy husni-xulqni imonning samarasi va saodat sari eltuvchi yo'l sifatida talqin qiladi.

Moturudiy ta'limotida husni-xulq – insonning ruhiy va aqliy kamoloti, jamiyat tinchligi va oxirat saodati uchun zarur bo'lgan asosiy qadriyat sifatida yuksak o'rinda turadi. U aql, iymon, erkin iroda va ijtimoiy adolat bilan uzviy bog'liq bo'lib, insoniyat uchun doimiy ahamiyatga ega.

"Husni-xulq" tushunchasining shakllanishi va uning Moturudiya ta'limotidagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha 5 ta amaliy tavsiyani ilgari suramiz:

1. Asosiy manbalarni to'liq va tizimli o'rganish. Moturudiy ta'limotini chuqur tushunish uchun uning asosiy asari – "Ta'vilot ahl as-sunna" va "Kitab at-Tavhid" kabi manbalarni o'rganish zarur. Ayniqsa, bu asarlarda aql, iymon va axloqiy fazilatlar haqida keltirilgan fikrlar tahlil qilinishi kerak. Shuningdek, Qur'on va hadis manbalarida husni-xulq bilan bog'liq oyat va rivoyatlarni ham mustaqil tarzda o'rganish, bu tushunchaning diniy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

2. Husni-xulqni zamonaviy kontekstda tadqiq etish. Moturudiy ta'limotini o'rganishda husni-xulq tushunchasini zamonaviy ijtimoiy, madaniy va axloqiy muammolar kontekstida tahlil qilish foydalidir. Masalan, zamonaviy axloqiy inqiroz, jamiyatdagi adolatsizlik yoki bag'rikenglik masalalarini Moturudiy tamoyillari bilan taqqoslab o'rganish husni-xulqning universalligini va dolzarbligini yanada ochib beradi.

3. Ilmiy adabiyotlar va tadqiqot ishlari bilan tanishish. Husni-xulq va Moturudiya ta'limoti mavzusida yozilgan zamonaviy tadqiqot ishlari va maqolalarni muntazam ravishda o'rganish tavsiya etiladi. Xususan, Xayrulla Komilov, Muzaffar Kamilov kabi olimlarning asarlari, shuningdek Ulrich Rudolph va Frank Griffel kabi xorijiy tadqiqotchilarning tadqiqotlari bu sohada chuqurroq tahlil va kengroq ilmiy qarashlar shakllantirishga yordam beradi.

4. Husni-xulqning amaliy ko'rinishlarini o'rganish va tajriba asosida tahlil qilish. Nazariy bilimlarni faqat o'rganish bilan cheklanmay, husni-xulqning kundalik hayotdagi amaliy ko'rinishlarini ham tahlil qilish muhim. Masalan, axloqiy yetuk shaxslar, tarixiy namuna bo'lgan insonlar hayotini o'rganish orqali Moturudiy qarashlarining real hayotdagi namoyon bo'lish shakllarini ochib beriladi.

5. Seminar va ilmiy suhbatlar tashkil etish. Husni-xulq tushunchasining shakllanishi va Moturudiy ta'limotidagi o'rni haqida ilmiy seminarlar, davra suhbatlari va muhokamalar o'tkazish tavsiya etiladi. Bunday tadbirlar o'zaro fikr almashish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mavzuni yanada teranroq o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, yoshlar va talabalar bilan husni-xulq mavzusida amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish, ularni o'z shaxsiy hayotlarida bu qadriyatlarni tatbiq etishga undash foydali bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Odinaxon Muhammad Sodiq. Go'zal o'rnak. – Toshkent.: "Hilol-Nashr", 2024. – B.3.
2. Absattorov B.M. Shaxs ma'naviy-axloqiy barkamolliги mezonlarining falsafiy talqinlari // QQDU axborotnomasi. – Nukus, 2019. – № 4. – B. 109-112.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. A.Madvaliev tahriri ostida – Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2022. – B.565.
4. Karomatov H.S. va boshq. Al-Moturudiy ta'limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o'rni. / Ma'ruzalar to'plami. / – Toshkent. TIU, Ijtimoiy fikr markazi, 2000. –B.144.
5. Abdulaziz Mansur. Moturudiyning aqidaviy qarashlari va islom tafakkuriga qo'shgan hissasi. – Toshkent., 2000.
6. Ziyodov Sh. Al-Moturudiy hayoti va merosi. – Toshkent.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashrieti", – B.21.